

## **Buxoro davlat universitetida 2022-yilning yanvar-iyun oylarida murojaatlar bilan ishlash borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan**

### **AXBOROT**

Buxoro davlat universitetida joriy yilning o'tgan yanvar-iyun oylarida jami 275 ta murojaat kelib tushgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali 30 ta, og'zaki 242 ta, yozma shaklda 3 ta murojaat qabul qilingan. Bevosita universitet rektori tomonidan 13 nafar fuqaro, prorektorlar tomonidan 229 nafar fuqaro, jami 242 kishi bevosita universitetda qabul qilingan.

Universitetga kelib tushgan og'zaki murojaatlardan 75 tasi qanoatlantirilgan, 163 tasiga va yozma murojaatning uchallasiga ham huquqiy tushuntirish berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan jami 30 ta murojaatdan 9 tasi qanoatlantirilgan, 19 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan, 2 ta murojaat ko'rib chiqish jarayonida.

O'tgan davr mobaynida murojaatlar bilan ishlashni takomillashtirishga qaratilgan 3ta o'quv tashkil etildi.

Buxoro davlat universitetiga murojaatlarning aksariyati o'qishni ko'chirish, shartnoma to'lovini to'lashning tartibi bo'yicha kelib tushgan. Muammolarning kelib chiqish sababi - talabalar va ularning ota-onalarida masalaga oid ma'lumotning yetarli emasligi va fuqarolarga dastlabki huquqiy tushuntirishlar to'liq taqdim etilmaganligidan iboratdir. Mazkur muammolarni hal etish maqsadida universitet Telegramm kanali orqali tezkor axborotlarni berib borish yo'lga qo'yilgan.

**BuxDu rektori**

**O.X.Xamidov**